

MILLIY LIBOSLAR - MILLAT KO'ZGUSI

Nizomova Mohina Sherzod qizi

Navoiy viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyi ilmiy xodimi.

+998-99-969-17-20

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18667093>

Odamning shakl-u shamoyili, bo'y-basti, ko'rinishi, jussasi, tusi, ko'z qarashlari, ovozi tarovati, xullas, ichki va tashqi dunyosi u tavallud topgan, unib-o'sgan va kamolotga yetgan joyga monand bo'ladi. Yetti iqlim kishilari yetti xildir. Demak, odam o'z vatanining bir zarrasidir.

Bizning har birimiz o'z yurtimizning bir zarrasimiz. Biz qayerda bo'lmaylik, o'zbekligimizni, o'z tashqi qiyofamiz, so'zimiz bilan ifoda etamiz. Shunday ekan, bizning kiyinish madaniyatimiz ma'naviyatimiz ko'zgusidir.

Xalq turmushining har qanday sohasi kabi o'zbek milliy kiyimini o'rganish o'zbek xalqining etnik tarixi va madaniyatini, uning boshqa xalqlar bilan o'zaro aloqalarini tadqiq etish bilan chambarchas bog'liqdir.

U moddiy ma'naviy yodgorliklar Ichida milliy o'ziga xoslikni aks ettiruvchi va etnik belgilarini ko'rsatuvchi mezondir. Kiyimlarda urf-odatlar, ijtimoiy munosabatlar, mafkuraning ba'zi bir elementlari, diniy e'tiqod, nafosat va estetik normalar o'z aksini topgan.



PARANJI. Ma'lumki, o'zbek xalqi o'zining milliy marosimlarida alohida kiyinadi. Nikoh yoki xatna to'yida kelin-kuyovlar liboslari, to'y bola kiyadigan liboslarga bo'linadi. Ayollarning milliy liboslari ichki, ustki va kishilik kiyimdan iborat bo'lgan. Ustki kiyimlar: kamzul, yengil xalat (mursak, kaltacha), yengsiz nimchalardir. Paranji ham ayollarning ustki kiyimi sanalib, to'n va ichidan qora ot yolidan ishlangan chachvondan iborat. Ayollar gavdasini boshidan oyoq yashirib turishga xizmat qiladi.

XX asrning 30-yillarigacha shaharlik o'zbek ayollari paranji yopinganlar. Paranj soxta yengli, to'nsimon, uzun yopinqichdan iborat bo'lib, otning dum qilidan to'qilgan to'n parda – chachvon betiga tutilib, ustiga paranji yopilgan.

Chachvon yuzini berkitib, belgacha yetgan. Odatda, paranji uydan ko'chaga chiqqanda yopinilgan. Qishloq joylarda paranji kam ishlatilgan, uni bayramlarda va uzoq safarga chiqilgandagina yopinganlar.



Paranji aslida forscha so'z bo'li, (faranji), libos, ko'ylak degan ma'noni anglatgan. dastlab paranji Misrda paydo bo'lib, u yerdan o'zga mamlakatlarga tarqalgan.

O'rta Osiyoda Shayboniylar sulolasi davrida paranji-chopon olimlarning kiyimi sanalgan.

Bundan ilgariroq Temuriylar zamonida Markaziy Osiyoda va so'ngra Boburiylar zamonida Hindistonda allomalar, davlat amaldorlari, ruhoniylar paranji libosi kiyib yurishgan.

So'nggi davrda esa paranjining vazifasi o'zgarib, u ayollarni begona nazardan yashirishga xizmat qila boshlagan. Paranji tutish ayol kishining yuzi va qaddi-qomatini mumkin qadar berkitishni talab etgan islom aqidalariga mos kelardi.

1927-yil 8-mart kuni "Hujum" harakati tufayli ayollar paranjilarini tashlashgan. Bugungi kunda paranji o'zbek ayollarining o'tmish hayot tarzidan dalolat beruvchi xotira sifatida muzey ashyolariga aylangan.



ZAR TO'N. O'zbek milliy kiyimi – o'zbek xalqining milliy o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi qadimgi davrlarda yaratilgan va hozirgi kunlarda foydalaniladigan, madaniyati va tarixi bilan uzviy bog'liq bo'lgan kiyimlar. O'zbek milliy libosiga ayollar uchun – zar chopon, do'ppi va atlas, erkaklar uchun – do'ppi, chopon, belbog' va yaktak kiradi.

Zar chopon o'zbek ayollarini qishda sovuqdan saqlovchi, yozda issiqdan saqlovchi kiyimdir. Bu chopon asosan baxmal, ipak, zar bilan tikiladi. Chopon o'zbek xalqini qadimiy liboslaridan biridir. Bu o'zbek ayollari uchun go'zallik ifodasidir. Bu chopon O'zbekistonning deyarli barcha joylarida kiyiladi. Surxondaryo va Zarafshon vohasida tizzagacha keladigan astarsiz kalta chopon ko'p uchraydi. Buxoro va Qashqadaryo vohasida uzun va keng, uzun yengli, paxta yoki ipak rangli matodan tikilgan choponlar keng tarqalgan.

KASHTALI KO'YLAK. O'zbek milliy liboslari juda yorqin, chiroyli, qulay bo'lib, xalqning boy madaniy an'analari va turmush tarzining bir qismidir. Ular erkaklar, ayollar va bolalar kiyimidan iborat bo'lib, inson umrining fasllariga qarab ham ajratilgan. Kiyimlarda insonning ijtimoiy mavqeyi, u yashagan joy va zamon, hayotidagi quvonchli yoki qayg'uli voqealar ham

namayon bo'ladi. Hamma davrlarda ham liboslarga qarab insonni qaysi ijtimoiy toifaga mansubligini bilishi mumkin.

Qadimda ayollar, erkaklar va bolalar kiyimlari kashtalar bilan bezatilgan, ayollar ko'ylagining ko'krak yeng va etak qismiga kashtalar tikilib, yeng uchlariga jiyaklar o'rnatilgan.

Bunday kashtali ko'ylaklar yuz yillar davomida haqiqiy san'at asariga aylanib ulgurgan.

Kashta tikilgan ko'ylaklar o'zining yorqinligi, ranglarning uyg'unligi bilan ajralib turadi.

Buxoro, Nurato kashtachiligining o'ziga xos tomoni shundan iboratki, o'ta mohirlik bilan yo'rma usulini ham qo'llagan.

Bugungi kunda ham ayollar, qizlar orasida kashtali ko'ylak, kamzullar kiyish, kashtali sumkalar ko'tarish va kashta tikilgan hamyonlarni olib yurish urf bo'lmoqda.

Navoiy viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyida namoyish etilgan milliy liboslar xalqimizning boy tarixiy merosi, urf-odatlar va estetik qarashlarini yaqqol aks ettiradi. Ushbu liboslar orqali o'zbek xalqining turmush tarzi, ijtimoiy mavqei, hududiy xususiyatlari hamda milliy qadriyatlar namoyon bo'ladi. Ranglar uyg'unligi, naqshlarning ma'nodorligi va qo'l mehnati asosida yaratilgan bezaklar ajdodlarimizning nozik didi va san'atga bo'lgan e'tiborini ko'rsatadi. Muzeydagi milliy liboslar nafaqat tarixiy manba, balki yosh avlodni milliy o'zlikni anglashga, qadriyatlarni asrab-avaylashga undovchi muhim madaniy meros hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. **O'zbek xalqining etnografiyasi** / K. Shoniyo'zov. – Toshkent: Fan nashriyoti.
2. **O'zbek milliy kiyimlari tarixi** / G. Sodiqova. – Toshkent: O'zbekiston nashriyoti.
3. **O'zbek xalq amaliy san'ati** / R. Abdullayeva. – Toshkent: San'at nashriyoti.
4. **O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi.** O'zbek xalqi moddiy va ma'naviy madaniyati tarixi bo'yicha ilmiy to'plamlar. – Toshkent.
5. **O'zbekiston davlat san'at muzeyi** fond materiallari va kataloglari. – Toshkent.

6. **Navoiy viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyi** ekspozitsiya materiallari va ilmiy tavsiflari.
7. **O‘zbek kashtachiligi** / M. Abduqodirova. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot.
8. **O‘zbek xalqining an’anaviy liboslari** / L. To‘xtayeva. – Toshkent: Yangi asr avlodi.